


## VIII. KICHIK TADBIRKORLIK (BIZNES)

2021-yilning yanvar–dekabr oylarida 15972 ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur‘ati 110,2 % ni tashkil qildi.

Eng ko‘p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo sohasida (jamiga nisbatan 39,4 %), sanoat tarmog‘ida (12,9 %), qurilish tarmog‘ida (9,3 %), yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar tarmog‘ida (5,9 %), axborot va aloqada (5,5 %), tashish va saqlash (3,6 %), sohliqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar (2,1 %), qishloq, o‘rmon, baliq xo‘jaligi (1,0 %) va boshqa tarmoqlar (20,4 %) tashkil etgan.

**2021- yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan  
kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy  
faoliyat turlari bo‘yicha ulushi, foizda**



- 2021- yilning yanvar–dekabr oylarida kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan:
- sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 31226,2 mlrd. so'mni (jami sanoat ishlab chiqarishining indeksi 36,3 %) ni tashkil qiladi;
  - investitsiyalar hajmi 25749,9 mlrd. so'mlik (umumiy investitsiyalar hajmidagi ulushi 44,7%) o'zlashtirildi va 2020 yilning yanvar–dekabrga nisbatan o'sish sur'ati 107,9 % ni tashkil qildi;
  - qurilish ishlari hajmi 15688,5 mlrd. so'mlik (qurilish ishlari umumiy hajmidagi ulushi 59,4 %) va 2020 yilning yanvar–dekabrga nisbatan o'sish sur'ati 101,3 % ni tashkil qildi;
  - xizmatlar hajmi 41570,3 mlrd. so'mlik ko'rsatilib (jami xizmatlar hajmidagi ulushi 40,0 %) 2020 yilning yanvar– dekabrga nisbatan o'sish sur'ati 119,9 % ni tashkil qildi;
  - avtomobil transportida 121019,6 ming tonna yuk tashilib (jami avtomobil transporti yuk tashishdagi ulushi 51,3 %) 2020 yilning yanvar– dekabrga nisbatan o'sish sur'ati 106,7 % tashkil qildi;
  - avtomobil transportida 957421,4 ming yo'lovchi tashilib (umumiy yo'lovchi tashishdagi ulushi 84,6 %) 2020-yilning yanvar–dekabrga nisbatan o'sish sur'ati 108,3 % ni tashkil qildi;
  - savdo hajmi 38 438,1 mlrd. so'mlik chakana tovar aylanmasi shakllanib (umumiy chakana tovar aylanmasi hajmidagi ulushi 62,6 %) 2020 yilning yanvar–dekabrga nisbatan o'sish sur'ati 111,5 % ni tashkil qildi;
  - tovarlar eksport hajmi 647,7 mln.AQSh dollari (umumiy eksport hajmidagi ulushi 37,4%) tashkil qildi.


### **Kichik tadbirkorlikning asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlardagi ulushi**

*(umumiy hajmiga nisbatan mlrd.so'mda)*


Tumanlar bo'yicha eng yuqori sanoat mahsulotlarni ishlab chiqarish hajmi Olmazor (4393,4 mlrd.so'm), Chilonzor (4303,3 mlrd. so'm), Yashnobod (4093,6 mlrd. so'm), Sergeli (3413,2 mlrd.so'm), Yunusobod (2424,8 mlrd. so'm), Yakkasaroy (2282,5 mlrd.so'm) Mirzo Ulug'bek (2179,7 mlrd. so'm), tumanlar hissasiga to'g'ri keladi.

Uchtepa (1864,9 mlrd. so'm), Bektemir (2124,1 mlrd. so'm), Mirobod (1742,5 mlrd.so'm) Shayxontohur (1192,9 mlrd. so'm) va Yangihayot (1211,2 mlrd. so'm) tumanlarda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.

**2021 -yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va ulushi**




**2021- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati**



Chakana tovar aylanmasi bo'yicha eng yuqori hajm Chilonzor (6003,9 mlrd. so'm), Uchtepa (4685,2 mlrd. so'm), Yunusobod (2672,8 mlrd. so'm), Bektemir (3584,0 mlrd. so'm), Shayxontohur (3713,2 mlrd. so'm), Yakkasaroy (3744,9 mlrd. so'm) va tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Shuningdek, tumanlar bo'yicha eng past chakana tovar aylanmasi Mirobod (2223,8 mlrd. so'm), Mirzo Ulug'bek (2573,7 mlrd. so'm) Olmazor (2382,6 mlrd. so'm) Yashnobod (2672,8 mlrd. so'm), Sergeli (1702,9 mlrd. so'm), va Yangihayot (498,4 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.


**2021- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati**



Qurilish sohasi bo'yicha eng yuqori hajmga ega bo'lgan Mirzo Ulug'bek (2024,2 mlrd. so'm), Yashnobod tumani (1934,5 mlrd. so'm), Yunusobod (1954,2 mlrd. so'm), Yakkasaroy tumani (1647,5 mlrd. so'm), va Mirobod tumani (1635,6 mlrd. so'm) tumanlariga to'g'ri keladi. Chilonzor tumani (1319,8 mlrd. so'm), Uchtepa (801,1 mlrd. so'm), Shayxontohur (998,2 mlrd. so'm), Olmazor (1106,1 mlrd. so'm) Sergeli tumani (1068,8 mlrd. so'm)

Bektemir tumani (628,2 mlrd. so'm) va Yangihayot tumani (570,2 mlrd. so'm) qurilish sohasida past hajmga ega.


### 2021-yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da investitsiya sohasi ulushi



Investitsiya sohasi bo'yicha eng yuqori hajmlar Yunusobod (4055,7 mlrd. so'm), Yakkasaroy (2205,7 mlrd. so'm), Olmazor (3093,6 mlrd.so'm), Mirzo Ulug'bek (3292,9 mlrd.so'm) Yashnobod (1922,3 mlrd. so'm), va Mirobod (2144,4 mlrd. so'm) tumanlariga to'g'ri keladi.

Sergeli (1449,0 mlrd.so'm), Shayxontohur (1886,6 mlrd. so'm), Chilonzor (1970,8 mlrd. so'm), Uchtepa (1344,2 mlrd. so'm), Bektemir (1709,9 mlrd. so'm), Yangihayot (674,7 mlrd. so'm) va tumanlarida investitsiya hajmi past bo'lib qolmoqda.

### 2021- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o'sish sur'ati



Xizmatlar sohasida eng yuqori hajmlar Chilonzor (4477,3 mlrd. so‘m), Mirzo Ulug‘bek (4553,6 mlrd. so‘m), Yunusobod (4252,9 mlrd. so‘m), Mirobod (3496,7 mlrd. so‘m), Shayxontohur (3420,1 mlrd. so‘m) va Yakkasaroy (3669,3 mlrd.so‘m) tumanlariga to‘g‘ri keladi.

Eng past xizmat hajmiga ega bo‘lgan Uchtepa (3414,4 mlrd.so‘m), Bektemir (2742,3 mlrd. so‘m), Sergeli (2427,6 mlrd. so‘m) va Yangihayot (1371,9 mlrd. so‘m) tumanlari hisoblanadi.

**2021- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning hududlar bo‘yicha iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ulushi, foizda**

	<i>Sanoat</i>	<i>Qurilish</i>	<i>Xizmatlar</i>	<i>Chakana savdo</i>
<b>Toshkent shahri</b>	<b>36,3</b>	<b>59,4</b>	<b>40,0</b>	<b>64,4</b>
<i>tumanlar:</i>				
Bektemir	35,3	65,1	83,0	89,8
Mirzo Ulug‘bek	43,1	67,4	44,3	71,7
Mirobod	22,4	64,6	29,3	51,1
Olmazor	65,1	53,7	43,7	58,1
Sergeli	52,2	85,7	44,7	43,1
Uchtepa	41,7	21,7	54,3	90,1
Chilonzor	49,6	66,5	36,6	56,5
Shayxontohur	20,5	50,1	29,6	59,4
Yunusobod	54,9	48,2	26,8	61,2
Yakkasaroy	43,4	86,2	42,5	64,4
Yashnobod	18,1	90,9	48,9	58,3
Yangihayot	45,9	68,6	86,2	98,8

Tumanlar bo‘yicha sanoat mahsulotlarni ishlab chiqarish bo‘yicha eng yuqori ulush Yangihayot (45,9 %), Olmazor (65,1 %), Chilonzor (49,6 %), Yunusobod (54,9%), Sergeli (52,2 %), Yakkasaroy (43,4 %), Mirzo Ulug‘bek (43,1 %), Bektemir (35,3 %), Uchtepa (41,7 %), Shayxontohur (20,5 %), Mirobod (22,4 %) va Yashnobod (18,1 %) tumanlariga to‘g‘ri keladi.

Qurilish bo‘yicha eng yuqori ulush Yangihayot (68,6 %) Sergeli (85,7 %), Yashnobod (90,9 %), Yakkasaroy (86,2 %), Bektemir (65,1 %), Mirobod (64,6 %), Chilonzor (66,5 %), Olmazor (53,7 %), Mirzo Ulug‘bek (67,4 %), Shayxontoxur (50,1 %), Yunusobod (48,2 %) va Uchtepa (21,7 %) tumanlariga to‘g‘ri keladi.

Xizmatlar sohasida eng yuqori ulush Yangihayot (86,2 %) Bektemir (83,0 %), Uchtepa (54,3 %), Yashnobod (48,9 %), Yakkasaroy (42,5 %), Mirzo Ulug‘bek (44,3 %) Chilonzor (36,6 %), Sergeli (44,7 %), Olmazor (43,7 %), Shayxantohur (29,6 %), Mirobod (29,3 %), Yunusobod (26,8 %), tumanlariga to‘g‘ri keladi.

Chakana savdo aylanmasida eng yuqori ulush Yangihayot (96,6 %), Uchtepa (88,5 %), Bektemir (85,8 %) M. Ulug‘bek (68,6 %), Yakkasaroy (63,0 %), Shayxontoxur (58,0 %), Olmazor (56,1 %), Yashnobod (56,0 %), Chilonzor (55,2 %), Mirobod (49,7 %), va Sergeli (42,0 %) tumanlariga to‘g‘ri keladi.


2021-yilning yanvar–dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 48,1 % ni tashkil qildi (2020 yilning yanvar–dekabr 51,2 %), YAHM tarkibi o‘tgan yilga nisbatan 3,1 foizga kamaygan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha 2021-yil yanvar–dekabr oylari yakunlariga ko‘ra, mikrofirmalar va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvlar o‘tkazildi. Unda 2371 dan ortiq respondentlar ishtirok etdi.

Kuzatuv ma’lumotlari tahlili, sanoat sohasida respondentlarning 59,0 % qoniqarli deb hisoblashini, mos ravishda sanoat sohasida 31,0 % qulay va 59,0 % esa qoniqarli, savdo sohasida 35,2 % va 56,2 %, xizmatlar sohasida 34,0 % va 56,8 % ni tashkil qilganini ko‘rsatdi.

Joriy iqtisodiy vaziyatga pessimistik ruhda yondashganlar qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 14,7 %, xizmatlarda 9,2 %, qurilishda 16,6 %, savdoda 8,6 % va sanoatda 10,0 % ni tashkil qildi.

#### **Kichik tadbirkorlikda iqtisodiy vaziyatni tarmoqlar kesimida baholash 2021- yil yanvar-dekabr oylarida, foizda**



Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yaxshilash uchun ko‘rilayotgan chora-tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.